



## TAFAKKUR - INSONNI BUYUKLIKKA YETAKLOVCHI KUCH VA TO'G'RI MAQSAD QO'YISH SAN'ATI

*“Yuksalish” xususiy maktabi, 3- “Zahiriddin Muhammad Bobur” sinfi o‘quvchisi,*

*Farruhjon Xatamov Alijon o‘g‘li*

*e-mail: xatamovxojiakbar5@gmail.com*

*Annotatsiya. Bu maqolamda tafakkur fanining biz yoshlar hayotidagi o‘rni, bizlarning mustaqil va ijodiy fikirlashimizni rivojlantirishdagi ahamiyati hamda to‘g‘ri maqsad qo‘yish ko‘nikmalarini shakillantirishdagi muxim ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘quvchilarning yani biz yoshlarni qiziqishi va qobilyatini anglashda katta yordam beradi.*

*Kalit so‘zlar. Tafakkur, mustaqil fikrlash, to‘g‘ri maqsad qo‘yish.*

**МЫСЛЬ — ЭТО СИЛА, КОТОРАЯ ВЕДЕТ ЛЮДЕЙ К ВЕЛИЧИЮ И  
ИСКУССТВУ ПОСТАНОВКИ ПРАВИЛЬНЫХ ЦЕЛЕЙ.**

*Частная школа “Yuksalish”, ученик 3-го класса “Захириддин Мухаммад*

*Бабур”,*

*Фаррух Хатамов Алиджон оглу*

*Электронная почта: xatamovxojiakbar5@gmail.com*

*Аннотация. В этой статье подчеркивается роль науки о мышлении в жизни нашей молодежи, важность нашего независимого и творческого мышления в формировании правильных навыков постановки целей. Это также значительно*



поможет в реализации интереса и способностей наших студентов, то есть молодежи.

**Ключевые слова.** Мышление, самостоятельное мышление, постановка правильной цели.

**THINKING IS THE POWER THAT LEADS A PERSON TO GREATNESS  
AND THE ART OF SETTING THE RIGHT GOALS**

*Private school "Yuksalish", student of class No. 3 "Zahiriddin Muhammad  
Babur",*

*Farrukh Khatamov Alijon oglu*

*e-mail: xatamovxojakbar5@gmail.com*

**Annotation.** *In this article, the role of the science of thinking in the life of our youth, the importance of our independent and creative thinking in the formation of the right goal-setting skills is emphasized. It will also be of great help in realizing the interest and ability of our students, i.e. young people.*

**Keywords.** *Thinking, independent thinking, setting the right goal.*

## **Kirish**

Bugungi zamon — bu faqat bilimlar davri emas, balki kreativ fikrlash davri hamdir.



Biz yoshlarning komil inson bo'lib yetishimiz uchun nafaqat bilim, jismoniy kuch, balki mustaqil fikrlash va uni hayotga tatbiq qila olishimiz kerak va bu juda zarur.

Savol tug'iladi.

Nega yoshlar imkoniyatlardan to'liq foydalana olishmayapti? Sharoitlar yaratilayapti-yu? Natijalar esa yetarli emas.

Javobi oddiy.

Biz yoshlarga bilim, ilm, tarbiya, jismoniy kuch — bularning hammasi o'rgatilayapti.

Faqat to'g'ri fikrlashni, aniq maqsad qo'yishni, muammolarni noodatij hal qilishni, berilayotgan bilimlarga savol bilan javob berishni, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishni alohida fan sifatida o'rgatilmayapti.

### **Asosiy qism**

Tafakkur fani — biz yoshlarni to'g'ri shakllantiruvchi, to'g'ri maqsad qo'yishni o'rgatuvchi fandır.

Tafakkur insonning ichki dunyosini belgilaydi. U orqali biz yoshlar:

- Haqiqatni anglaymiz.
- Qarorlar qabul qilamiz.
- To'g'ri maqsad qo'yib, unga intilamiz.
- Kelajagimizni quramiz.



Ammo tafakkur rivojlantirilmasa:

- Boshqalarga ergashamiz.
- Qimmatli vaqtimizni boy beramiz.
- Berilayotgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalana olmaymiz.

Bo'lajak yurt egalari yurtni rivojlantirish o'rniga, uni zavol topishiga mahkum qiladi.

## SHUNING UCHUN HAM TAFAKKUR FANINI TA'LIM TIZIMIGA CHUQUR JORIY ETISH ZARUR.

### **Mustaqil fikrlash va uning ahamiyati**

Mustaqil fikrlash — bu erkinlikning eng yuqori bosqichidir. Bunda biz yoshlar:

O'z fikriga ega bo'lamiz.

- To'g'ri va noto'g'ri ekanligini anglashni o'rganamiz.
- Maqsad qo'yib, unga erishish uchun harakat qilamiz.
- Vaqtimizni behuda sarflamaymiz.

*Shaxsiy fikri bo'lmagan yoshlar boshqariladi,*

*shaxsiy fikri bo'lgan yoshlar boshqaradi.*

### **Ijodiy fikrlash — taraqqiyot omilidir**

Ijodiy fikrlash orqali biz yoshlar muammolarga yangi yo'l orqali yechim topamiz.

Bu esa:



- Jamiyatning rivojlanishiga xizmat qiladi.
- Yangi imkoniyatlarni ochadi.
- Oddiy fikrlash natija bermaydi, ijodiy fikrlash tarix yaratadi.

### **To'g'ri maqsad qo'yish — kelajakni belgilaydi**

Maqsad inson hayotiga ma'no beradi. Maqsadsiz inson harakat qiladi, lekin natijaga erisha olmaydi.

Tafakkur fani biz yoshlarni:

- Aniq maqsad qo'yishga;
- Unga erishish yo'lini rejalashtirishga;
- Qat'iyat bilan harakat qilishga o'rgatadi.

Maqsadi bor yoshlar hech qachon natijasiz qolmaydi.

### **Biz yoshlarning qiziqishi va qobiliyatini aniqlashda tafakkur fanining o'rni**

Zamonaviy ta'limda har bir o'quvchining ichki salohiyatini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, tafakkur fanida quyidagi savol-javoblar orqali biz o'quvchilarning qobiliyatini aniqlashimiz mumkin.

Agar senga katta miqdorda sarmoya berilsa, uni nimaga sarflaysan?

Bu savol oddiy ko'rinsa-da, u biz o'quvchilarning:

- Qiziqishini,
- Dunyoqarashini,
- Maqsadini,



- Ichki orzularini aniqlash imkonini beradi.

Masalan:

- biznesni tanlaydi — unda tadbirkorlik qobiliyati bor;
- ilm-fanni tanlaydi — unda izlanish ruhiyati kuchlidir;
- yordam berishni tanlaydi — unda insonparvarlik ustundir.

Bu usul orqali o'qituvchi o'quvchilarni chuqurroq anglaydi va to'g'ri yo'naltira oladi.

Shu sababli:

**TAFAKKUR FANINI** maxsus darslik sifatida yoshlarimizga o'qitishni taklif etaman.

Tafakkur fanining ruhiyatga ta'siri

Tafakkur fani nafaqat bilim beradi, balki biz yoshlarning ichki dunyosini o'zgartiradi.

O'quvchilarning:

- Ishonchini kuchaytiradi,
- Qat'iyatini oshiradi,
- Qo'rquvini kamaytiradi.
- O'z fikriga ega inson hech qachon sinmaydi.

**Tadqiqotlar natijasi**



Tafakkur fani muntazam o'qitilgan o'quvchida mustaqil fikrlash darajasi oshadi, nutqi ravonlashadi, muammolarni hal qilish ko'nikmasi rivojlanadi, o'z maqsadini aniqlab, maqsad sari harakat boshlaydi, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanadi va jamiyatni yuqori cho'qqilarga olib chiqishga hissa qo'shadi. Eng muhimi, u o'quvchilarni oddiy bilim oluvchi emas, balki ongli shaxsga aylantiradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, tafakkur — insonni yuksaltiradigan eng katta kuchdir. Agar biz yoshlarga fikrlashni, to'g'ri maqsad qo'yishni va o'z yo'lini tanlashni o'rgatsak, nafaqat yoshlarimizning kelajagini, balki butun jamiyat kelajagini ham o'zgartiramiz, yurtimizni dunyoga tanitamiz va ota-bobolarimizga munosib voris bo'lamiz.

### **Eng kuchli fikr.**

- Hayotingizni o'zgartirmoqchimisiz?
- Unda, avvalo, fikringizni o'zgartiring.
- Maqsadingizni aniqlang va biz yoshlar allaqachon boshqalardan oldindamiz.